

IMPACT FACTOR 7.955

ISSN: 2720-5746

EUROPEAN JOURNAL

OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH AND DEVELOPMENT

VOLUME No.14

April-2023



POLAND



AN OPEN ACCESS

PEER REVIEWED

MONTHLY JOURNAL

46. O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATIDA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING IFODALANISHI

Husanova Shaxina Abdurashid qizi
257-263

47. DEVELOPMENT OF DIGITAL MARKETING IN UZBEKISTAN

Dilrabo Usmanova
264-266

48. BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING DASTURLASHTIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI VA METODLARI

Kuralov Yuldash Abdullayevich
267-272

49. ANALYSIS OF THE STATE OF INNOVATIVE PROCESSES AND FINANCING OF THE AGRICULTURAL NETWORK

Ishniyazov Bakhrom Normamatovich
273-279

50. INKLYUZIV TA'LIM VA DISKRIMINATSION OMILLAR

Shaxnoza Xudayshukurovna Kobilova, Dilrabo Mahkamovna Matanova, Zarnigor Davlatboy qizi Dehqonboyeva, Farangis Alisher qizi Abdushukurova
280-283

51. INFLUENCE OF TEMPERATURE AND CONCENTRATION OF SODIUM HALOIDES ON THE CORROSION RATE OF METALS

Ruzieva M., Vapoev H. M., Razzakov H. K., Nazarov S. I., Kodirov S. M.
284-289

52. ИЗУЧЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО БАЛАНСА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ОБРАБОТКИ ПОВЕРХНОСТНЫМ ПЛАСТИЧЕСКИМ ДЕФОРМИРОВАНИЕМ

Тураев Тиркаш Тураевич, Акрамов Максаджон Мухтарович, Мадаминов Бахром Миродилович
290-295

53. THE ATTITUDE TOWARDS NATIVE AMERICANS IN "THE LAST OF THE MOHICANS" BY J. F. COOPER

Yoriyeva Maftuna Umedovna, Qurbonova Nodira Roziqovna
296-300

54. "QIROL LIR" TRAGEDIYASIDA EPIZODIK OBRAZLAR MISOLIDA INSON QISMATINING IFODALANISHI

Kurbonova Nodira Rozikovna, Karimova Khadicha Jamshidovna
301-304

55. ГИМНАСТИКА БЎЙИЧА ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИНИ БОШҚАРИШ ВА УНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ

Юсупов Тоиржон Тўланович
305-311

56. SPORTCHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Baxrom Botirov
312-318

“QIROL LIR” TRAGEDIYASIDA EPIZODIK OBRAZLAR MISOLIDA INSON QISMATINING IFODALANISHI

Kurbonova Nodira Rozikovna,
Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
Buxoro Davlat Universiteti

Karimova Khadicha Jamshidovna
Adabiyotshunoslik (ingliz) yo`nalishi II bosqich magistranti
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqola jahon madaniyati klassik asarlaridan biri “QiroL Lir” tragediyasida epizodik obrazlar misolida inson taqdiri idodalanishini tahlil etadi.

Kalit so`zlar: epizodik obraz, inson qismati, obraz, taqdir, motiv.

Abstract:

The following article briefly analyzes the description of human destiny via episodic characters in one of the most prominent classic plays - the tragedy “King Lear” by U. Shakespeare.

Key words: episodic character, human destiny, symbol, motif.

Renesans davri adabiyotida inson ulug`lanadi, inson hayoti va qadri olam markaziga qo`yiladi. Biroq, Shekspir o`zining “QiroL Lir” tragediyasi bilan Yelizavetta davri an`analarini shubha ostiga oldi. Asar mohiyatida “inson o`z tabiati va bashariyat qonun-qoidalari natijasidasi albatta azob-uqubatlarga giriftor bo`ladi” degan motiv yotadi degan qarashlar ham mavjud. [1; 79] Tragediya qahramonlari taqdiri misolida biz shu motiv guvohiga aylanamiz. Lir ham, unga azob bergan Goneril va Regan ham, begunoh Cordelia va Edgar ham fojea qurboniga aylandi.

“QiroL Lir”da ichki qarama-qarshiliklarga to`la protagonist Lir tragediyadagi yagona fojeali obraz emas. Asardagi epizodik obrazlar misolida ham inson qismati yaqqol ifoda etilgan bo`lib, Shekspir dahosi inson tabiatidagi nozik nuqtalarni-da mohirlik ila o`quvchiga yetkaza oladi.

“Xarakter bu – taqdir” Shekspir tragediyasida tez-tez uchraydigan asosiy mavzudir. Bu tushuncha uning QiroL Lir, Gloster va Edmund obrazlari orqali tasvirlangan. Asardagi har bir qahramonning jamiyatdagi xususiyatlari va rollari boshqa personajlar bilan qanday munosabatda bo`lishini uning taqdirini belgilaydi. [3; 147]

“QiroL Lir”dagi qahramonlar keskin farq qiluvchi yaxshi va yovuz obrazlardan iborat; QiroL Lirning ikki dahshatli qizi Goneril va Regan spektakl boshidanoq antagonist arxetipi bo`lib, ular asardagi o`z rolini yaxshi bajarsalar-da, ular Shekspirning boshqa antagonist qahramonlari, masalan Ledi Makbet kabi rivojlangan emas.

Regan va Goneril obrazlari tahlilida shuni ko`rishimiz mumkinki, bu ikki qahramonning xarakteri va xulq-atvori bir-biriga juda o`xshash, ularni alohida individ sifatida ajratish biroz qiyin. Ularning xarakteristik xususiyatlari umumiy yovuzlik maqsadi ila birlashgan. Ularning

har ikkisi juda shavqatsiz, xudbin, yuraksiz, uyatsiz va noshukur. Biroq sal qo`rqoq va sust bo`lishiga qaramay, qari qirolga sodiq bo`lgan Alban gersogi oz bo`lsa-da xotini Gonerilning yovuz harakatlarini cheklab turadi. Kornuel gersogi esa Reganni barcha qilmishlarida uni qo`llab quvvatlaydi.

*GONERIL: Why might not you, my lord, receive attendance
From those that she calls servants, or from mine?*

*REGAN: Why not, my lord? If then they chanced to slack
you,
We could control them. If you will come to me
(For now I spy a danger), I entreat you
To bring but five-and-twenty. To no more
Will I give place or notice.*

LEAR: I gave you all—

REGAN: And in good time you gave it. [2; Act II, scene IV, 116]

Shekspir spektakldagi mulohazali mavzularini yetkazish va tomoshabinlar o`sha haolatni tasavvur qilishi uchun ko`pgina usullardan foydalanadi. Masalan, Lir obrazi uchun hayvonlar tasviriga tayanib, qizlarining insoniyligidan jirkanishini namoyon qiladi.

LEAR: Detested kite, thou liest. [2; Act I, scene IV, 60]

Bu yorqin tasvir o`quvchilarga Lir o`z qizlarining insoniylikdan mahrum ekanligidan dalolat beradi. Ular xuddi u o`xshatgan hayvonlar kabi shafqatsiz va hissiz kabi tasvirlanadi.

Regan va Goneril obrazi inson tabiatida sevgi va muhabbat tuyg`ulari naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ko`rsatadi. “Muhabbat”ni o`yinchoq qilgan bu obrazlar, otalariga bo`lgan muhabbatni toju-taxtga almashishdi, tadqir charxpalagi ila esa o`zlari muhabbat qurboniga aylanishdi.

REGAN: Now, sweet lord,

You know the goodness I intend upon you;

Tell me but truly, but then speak the truth,

Do you not love my sister? [2; Act V, scene I, 228]

Jamiyatdagi illatlar naqadar jirkanch bo`lmasin, Shekspir ularni o`z asarlarida ochib berishga harakat qildi. Regan va Goneril turmushga chiqqan, oilali ayol bo`lsada, Edgarga muhabbat tuyg`usi ila bog`lanishdi hamda bir-birini o`z muhabbatiga erishish yo`lida zaharlashdi.

“Qirol Lir” tragediyasi pyesa ichida pyesa shaklida yaratilgan bo`lib, bir tomondan Lir va uning qizlari taqdiri haqida hikoya qilsa, bir paytning o`zida Gloucester va uning ikki o`g`li taqdirini bayon etadi. Shekspir hayot paralelliklar iborat deydi. Regan va Goneril Lirga nisbatan qilgan munosabat, Edmund nutqida ham kuzatiladi.

EDMUND: This seems a fair deserving, and must draw me

That which my father loses—no less than all.

The younger rises when the old doth fall. [2; Act III, scene III, 136]

Gloucester oilasida jamiyatdagi yana bir necha ko`tariladi - xiyonat, hasad, shaxsiy manfaat, xudbinlik va otaga hurmatsizlik. Gloucesterning merosxo`ri bo`lish istagi natijasida aka uydan haydaladi, telbalarcha hayot kechirishga mahkum etiladi; ota davlatga xiyonatda ayblanib, ko`zlaridan mahrum bo`ladi.

Edmund Glosterning nikohsiz tug`ilgan o`g`li. Jasur va yovuz Edmund Edgarga qarshi fitna tuzadi va yovuz opa-singillar Goneril va Regan bilan kuchlarni birlashtiradi. Aqllilik va yovuzlikni o`zida birlashtirgan bu personaj o`zining kuchli zakovati, jasorati, irodasi, aristokratliligi bilan bizni birinchi tanishuvimizdanoq undan nafaqat katta tashabbuslar, balki ularda katta muvaffaqiyatlar kutishga tayyorlaydi.

Shekspir uchun Edgar obrazi Lirning inson hayoti va tabiati haqidagi tushunchalarini o`stirish uchun xizmat qiladi [4; 365]. Shu sababli Edgar Lir o`zining bu olamda nisbatan ahamiyatsiz ekanligini anglagan paytda xarakter sifatida rivojlanadi.

Asarning barcha antagonist qahramonlari ichida Edmund eng murakkab va yoqimtoy. U tengi yo`q sxemachi, har qanday imkoniyatdan foydalanishni istaydigan va o`z maqsadlariga erishish uchun hamma narsani qilishga tayyor bo`lgan xarakterga ega. Biroq, uning maqsadi nafaqat yer va hokimiyatga ega bo`lish, balki nikohsiz tug`ilganligi uchun uni tan olmayotgan jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lishdir. Uning ketma-ket xiyonati faqatgina shaxsiy manfaati yo`lida emas, bu Glosterning qonuniy o`g`li Edgar bilan bir xil maqomdan mahrum qilgan ijtimoiy tuzumga qarshi ongli isyondir. [5; 90-113]

EDMUND: *Thou, Nature, art my goddess. To thy law
My services are bound.*

Now, gods, stand up for bastards!" [2; Act I, scene II, 31]

deb buyuradi Edmund, lekin aslida u ilohiy yordamga emas, balki o`z tashabbusiga ishonadi. Edmund aql va zakovat bilan barcha narsaga erishish mumkin deb o`ylaydi.

EDMUND: *Let me, if not by birth, have lands by wit.*

All with me's meet that I can fashion fit. [2; Act I, scene II, 40]

Inson o`z taqdirining yaratuvchisidir degan g`oyani ilgari surgan Edmund, insonlar o`z qilmishlari uchun yulduzlar va taqdirni ayblashlarini tushunmaydi.

EDMUND: This is the excellent foppery of the world, that
when we are sick in fortune (often the surfeits of
our own behavior) we make guilty of our disasters
the sun, the moon, and stars. [2; Act I, scene II, 37]

U judaham mustaqil shaxs va u shunchalik sovuqqon va qobiliyatli antagonist qahramonki, "Otello"dagi Yago kabi Edmundning qilmishlarini kuzatish tomoshabinlar uchun juda maroqli. Faqat spektakl yakunida Edmund ojizligini ko`rsatadi. O`lim yoqasida yotgan Edmund Goneril ham, Regan ham uning uchun o`lganini ko`radi va pichirlaydi:

EDMUND: Yet Edmund was beloved. [2; Act V, scene III, 254]

Ushbu bayonotdan so`ng, u yovuzligidan tavba qilganga o`xshaydi va Cordelianing o`limiga buyruq berganini tan oladi. Uning Shekspir antagonist qahramonlari orasida kamdan-kam uchraydigan o`ziga xos o`zgarishi tomoshabinlarni bu xunrezlilar paytida Edmundning yovuzligi qandaydir tug`ma shafqatsizlikdan emas, balki uning o`z atrofida guvohi bo`lgan oiladagi muhabbatga bo`lgan noto`g`ri munosabat, mehrga tashnalikdan kelib chiqqanmi deb o`ylantiradi.

Edmund obrazi orqali Shekspir bizga yana bir saboq beradi. Asarni tahlil qilar ekanmiz, Shekspir jamiyatda ildiz otgan yana bir illat – zino haqida so`z yuritadi. Gloucester, Goneril va Regan bu illat qurboniga aylanishda va qilmishlari uchun javob berishdi. Shuningdek, zino natijasida

dunyoga kelgan farzand, Edmund, otasiga boʻlgan nafrat, jamiyatning unga boʻlgan munosabati va zino natijasida dunyoga kelganligi uchun atrofdagi butun olamdan oʻch olmoqchidek, biroq, asar davomida bu obraz rivojlanib, oʻz yovuz tabiatiga qarshi kurashgani guvohi boʻlamiz.

EDMUND: Some good I mean to do

Despite of mine own nature. [2; Act V, scene III, 254]

Edmundning xatti-harakati uchun oʻzini ikkinchi darajali his qilgan va har qanday yoʻl bilan jamiyatda mavqega ega boʻlishga harakat qilgan oʻgʻil kontseptsiyasining noqonuniyligi sabab boʻladi.

“Qirol Lir” tragediyasi Shekspirning boshqa pyesalaridan tubdan faqr qiladi: bosh qahramonlar fojeasi tragediya boshlanishida; III pardaga kelib, Lir xatolarini tushunib yetadi, V pardada Edgar oʻz qilmishlari uchun pushaymon boʻladi. Syujetni bunday rivojlantirish biz, oʻquvchilarga qahramonlar xatolaridan oʻrnak olishimizga ximat qiladi.

“Qirol Lir” jamiyatdagi mavjud illatlarning barchasini oshkora ayon etadi. Bu fojeada biz insoniylik tuygʻusini himoya qiluvchi barcha ezgu fazilatlar parchalanib ketadi: farzand otasini surgun qiladi, keksalar qiynoqqa solinadi, aka ukasini poylaydi, qondoshlar bir-birini oʻldiradi, adolat va haqgoʻylik jazolanadi, xushomadgoʻylik va yolgʻon olqishlanadi. Shekspir tragediyada asosan oʻzi yashagan hayot gʻam-gʻussalari, odamlar orasidagi tortishuv va kurashlardan yuzaga kelgan fojialarni aks ettirgan. Shekspir odam bundoq boʻlmogʻi kerak, mana senga ideal inson timsoli, deb taʼkidlamagan. Aksincha, koʻzni kattaroq ochib qara, fikrla: mana, sen maqtagan, ulugʻlagan insonning ahvoli, yaxshi va yomonligi; bir-biriga munosabati, hayotdagi oʻrni, degan tushuncha asosida ijod qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Andrews John. William Shakespeare: His world, His work, His influence. New York: Charles Scribner's son, 1985
2. U. Shakespeare. King Lear. www.shakespeare.folger.edu.
3. Andrew Cecil Bradley. Shakespearean Tragedy: Lectures on Hamlet, Othello, King Lear, Macbeth. -Macmillan, 1904. – 476 pages.
4. Doran, Madeleine. Common Plots in Elizabethan Drama - Greenhaven Press, 2000.
5. Greenblatt, Stephen. Will in The World: How Shakespeare Became Shakespeare. London: Pimlico, 2005. – 386 pages.
6. Peck, Russell A. “Edgar's Pilgrimage: High Comedy in King Lear.” Studies in English Literature, 1500-1900, vol. 7, no. 2, 1967, pp. 219–37.